

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

RAXMONOV TOXIRBEK IMOMALIYEVICH

**YUPQA QATLAMLI $\text{CdTe}_x\text{Se}_y\text{S}_{1-(x+y)}$ POLIKRISTALL
STRUKTURALARNING TEXNOLOGIYASI VA FOTO-
TENZOELEKTRIK XOSSALARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Raxmonov Toxirbek Imomaliyevich

Yupqa qatlamli $CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$ polikristall strukturalarning texnologiyasi va foto-tenzoelektrik xossalari3

Рахмонов Тохирбек Имомалиевич

Технология и фото-тензoeлектрические свойства пленочных поликристаллических структур $CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$27

Rakhmonov Tokhirbek Imomaliyevich

Technology and photo-tenzoelectric properties of film polycrystalline structures $CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$ 52

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....56

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

RAXMONOV TOXIRBEK IMOMALIYEVICH

**YUPQA QATLAMLI $CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$ POLIKRISTALL
STRUKTURALARNING TEXNOLOGIYASI VA FOTO-
TENZOELEKTRIK XOSSALARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/FM658 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Nosirjon Xaydarovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuritdimov Izzatillo
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Gulyamov Gafur
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitet huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiyaning himoyasi Farg'ona politexnika instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «03» soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: uzferfizika@mail.ru, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Farg'ona politexnika institutning axborot-resurs markazi ilmiy-uslubiy bo'limida tanishish mumkin. (192 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+99891) 328-32-69).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «04» 03 kuni tarqatildi.

(2023 yil «04» 03 dagi 14

raqamli reestr bayonnomasi).



V.R Rasulov

falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash raisi
f-m.f PhD, dotsent.

B.J. Axmadaliyev

falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, f-

S.M Otajonov

falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jaxonda qattiq jismlar fizikasi va quyosh energetikasi sohasida keng taqiqlangan zonali $A^{II}B^{VI}$ yarimoʻtkazgichlar asosidagi mikro- va nanomateriallarning original texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularning yangi fizik xossalarini tadqiq etish boʻyicha fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari yetakchi oʻrinlardan birini egallamoqda. Shu jihatdan, kadmiy xalkogenidlarning qattiq eritmaları va geterostrukturalaridan zaruriy optik va fotoelektrik xossalarga ega arzon yorugʻlik nurlatgichlar, fotopriyomniklar, fotosensorlar yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli soha mutaxassislarida CdS, CdSe, CdTe asosidagi quyosh elementlari va fotooʻzgartirgichlarning samaradorligini yanada oshirish alohida qiziqish uygʻotmoqda. Bu jihatdan, CdSe_xS_{1-x} va CdTe:Sn qattiq eritmalar yuqqa qatlamli strukturalarining yangi texnologiyalarini yaratish va ularda foto-tenzoelektrik hodisalarni oʻrganish kondensirlangan holat fizikasining dolzarb muammosi hisoblanadi.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida yarimoʻtkazgichli polikristal yuqqa qatlamlarni oʻstirish sharoitlariga kuchli bogʻliq boʻlgan yangi strukturaviy sezgir va foto-tenzoelektrik xossalarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada vakuumda portsiyaviy bugʻlatish yoʻli bilan CdTe, CdSe, CdS asosidagi anomal fotovoltaik xususiyatli yuqqa polikristall qatlamlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning foto-tenzoelektrik xossalarini oʻrganish; kirishmali CdTe:Sn yuqqa qatlamlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning fotosezgirlik spektrlariga mexanik deformatsiyaning taʼsirini oʻrganish; qattiq qorishma CdSe_xS_{1-x} asosida fotorezistiv yuqqa polikristal qatlamli strukturalar olish va ularning foto-tenzoelektrik xossalarini oʻrganish mikroelektronikaning dolzarb masalalaridir.

Soʻngi yillarda Oʻzbekiston Respublikasida yarimoʻtkazgichli materiallarini tadqiq qilish, xususan, ularning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va fundamental fizik xossalarini tavsiflashning usullarini ishlab chiqish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasida "... iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash, hayotning barcha sohalariga "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol tatbiq etish, energiya samaradorligini oshirish..."¹ kabi dolzarb vazifalar qoʻyilgan. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun quyosh energiyasiga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini qurish, shuningdek, yangi optoelektron qurilmalarni yaratish uchun zarur boʻlgan noyob elektrofizik xususiyatlarga ega kadmiy xalkogenidlarining qattiq eritmaları asosidagi yarimoʻtkazgich materiallarni yaratish katta ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya ishi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-60-son Farmoni ».

28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fizika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini va ular ishlab chiqaradigan energiyaning davlat hisobini yuritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 452-son qarori hamda ushbu sohada qabul qilingan shunga o‘xshash huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi. Ushbu dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi PPI-3 “Energiya, energiya va resurslarni tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozlikni rivojlantirish”ga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘pgina xorijiy ilmiy markazlarda CdS, CdSe, CdTe asosidagi yupqa qatlamli strukturalarning tok o‘tkazish mexanizmlari, fotoo‘tkazuvchanligi, optik spektrlari hamda burchak ostida o‘stirilgan CdTe plyonkalarining fotovoltaik xossalari atroflicha o‘rganilgan va ular optoelektronikada amaliy qo‘llanilmoqda. Bunday tadqiqot markazlari qatoriga Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti¹ (Rossiya), Ukraina Milliy Fanlar Akademiyasining Yarimo‘tkazgichlar fizikasi instituti², Meksika Guadalajara universiteti³, AQShning Delaver universiteti, Materialshunoslik milliy instituti (Yaponiya), RFAning Lebedev nomidagi Fizika instituti, Ioffe nomidagi fizika-texnika instituti, V. Kapsukas nomidagi Vilnyus universiteti va boshqalarni kiritish mumkin. Xususan, kadmiy xalkogenidlarining polikristall yupqa qatlamli elementlari tayyorlash texnologiyaschiga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgan kristall donlar chegaraviy sirtining maxsus elektron xususiyatlari va chuqur sathli o‘ziga xos xajmiy lokal markazlarning mavjudligi sababli yuqori foto va deformatsiya sezgirligi bilan ajralib turishi aniqlangan.

O‘zbekistonning taniqli fizik olimlari fotovoltaik yupqa qatlamlar olish texnologiyasini yaratish va ularning fundamental fizik xossalarini o‘rganish ustida qizg‘in ish olib borganlar. Chunonchi, akademik E.A. Adirovich va uning shogirdlari T. Mirzamaxmudov, Yu.M. Yuabov, farg‘onalik fiziklar E.I. Bilyalov, A.Ya. Afuzov, N.X. Yuldashev, shuningdek, S.X. Shamirzayev, K.M.

¹Саиджонов Б.М. Направленный синтез и оптические свойства коллоидных двумерных наноструктур CdSe_{1-x}S_x/CdS(ZnS) – перспективных люминофоров белого света // Диссертация на соискание ученой степени кандидата химических наук. МГУ-2021. -150 с.

²Кунец В.П., Кулиш Н.Р., Лисица М.П., Брыска В.П. Модель фотоотжига собственных дефектов гексагональных квантовых точек CdS_xSe_{1-x} // Физика и техника полупроводников-Санкт - Петербург. 2004. -№(38) 4. - С. 465- 468.

³Rivera L.P., García E., Cardona D., Pérez-Centeno A., Camps E., Santana-Aranda M.A., Gómez-Rosas G., de Moure-Flores F., Chávez-Chávez A. and Quiñones-Galván J.G.. CdTe:Sn thin films deposited by the simultaneous laser ablation of CdTe and Sn targets // Mater. Res. Express 7 (2020).

Doshanovlar xalkogenidli yarim o'tkazgichlar asosidagi plyonkalarining original texnologiyalarini ishlab chiqishdi va ularda kechadigan anomal fotoelektrik effektlarning o'ziga xos tomonlarini nazariy jihatdan tavsiflab berishdi. Saidov M.S., Mirsagatov Sh.A., Razikov T.M. va M.A. Karimovlarning eksperimental ishlarida kadmiy xalkogenidli yupqa qatlamli strukturalarning fotoelektrik xossalari va tok oqishining mexanizmlari tadqiq etilgan.

Biroq, shu vaqtgacha CdTe, CdSe, CdS fotovoltaik yupqa qatlamlarni vakuumda portsiyalab bug'latish yo'li bilan, legirlangan CdTe:Sn plyonkalarini, CdSe_xS_{1-x} qattiq eritmasi asosidagi fotorezistiv polikristal yupqa qatlamli strukturalarni olish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning foto-tenzoelektrik xususiyatlarini o'rganish muammolari etarlicha hal etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Farg'ona politexnika institutida, xususan, fundamental ilmiy loyiha: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining 80-06-sonli granti va institutning 2017-2022 yillarga mo'ljallangan "Kadmiy xalkogenidlarining yarim o'tkazgich plyonkali strukturalarida foto-tenzoelektrik hodisalar" mavzudagi istiqbolli ilmiy rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi vakuumda termik bug'latish usulini takomillashtirish orqali turli tarkibdagi CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)} yupqa qatlamli strukturalarni olishning optimal texnologik rejimlarini aniqlash va ularning foto-tenzoelektrik xossalarini o'rnatishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

vakuumda portsiyaviy bug'latish yo'li bilan CdTe, CdSe, CdS asosidagi anomal fotovoltaik xususiyatli yupqa polikristall qatlamlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning foto-tenzoelektrik xossalarini o'rganish;

kirishmali CdTe:Sn yupqa qatlamlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning fotosezgirlik spektrlariga mexanik deformatsiyaning ta'sirini o'rganish;

qattiq qorishma CdSe_xS_{1-x} asosida fotorezistiv yupqa polikristal qatlamli strukturalar olish va ularning foto-tenzoelektrik xossalarini o'rganish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida termik vakuumli bug'latish usuli bilan shisha taglik yuzasida olingan polikristalli CdTe, CdSe, CdS, CdTe:Sn va CdSe_xS_{1-x}, yupqa qatlamlari tanlangan.

Tadqiqot predmeti CdTe, CdSe, CdS, CdTe:Sn va CdSe_xS_{1-x}, plyonkalarini olishning texnologik jarayonlari hamda elektrofizik, fotoelektrik va tenzoelektrik hodisalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Ishni bajarishda xalqaro standartga mos bo'lgan, vakuumda termik bug'latish usuli, rentgen nurlari diffraksiya usuli hamda qattiq jismlar fizikasidagi zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi va harakatchanligini o'lchashning Xoll usuli, volt-amper, lyuks-amper, lyuks-volt, spektral va deformatsiya xususiyatlarini tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor $P \approx 10^{-1} - 10^{-2} Pa$ vakuumda 40-50 mg boshlang'ich materialni portsiyalab bug'latish orqali $T_p = 250 - 350 K$ temperaturali shisha taglikda $CdTe$, $CdSe$, CdS fotovoltaiik yupqa qatlamlar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda fotokuchlanish, qisqa tutashuv fototoki spektrlarining deformatsiya, haroratga bog'lanishini tahlil qilish asosida anomal fotovoltaiik effekt assimetrik potentsial to'siqlarning zanjirlari tufayli yuzaga kelishi aniqlangan.

ikki qo'shni kristall donlar chegarasidagi sirtoldi sohalarning assimetrik fotovoltaiik xususiyatlarini va burchak ostida o'tqizilgan yupqa qatlam o'sishining real strukturasi hisobga olgan holda anomal foto-EYuK shakllanishining fenomenologik nazariyasi rivojlantirilgan va u eksperimental olingan spektral, lyuksvltaiik xususiyatlarga sifat jihatidan qoniqarli mos kelishi ko'rsatilgan.

ilk bor qalinligi $d \approx 0,8 - 1,0 mkm$ bo'lgan yuqori qarshilikli $CdTe:Sn$ yupqa qatlamlar uchun Sn miqdori 0 dan 5 atom.% gacha ortganda fotokuchlanish qiymati 400 dan 4200 V gacha o'sishi, so'ngra Sn 8 atom.% gacha ko'payganda sekin-asta 2000 V ga tushishi, ularning deformatsiya xarakteristikasi chiziqli va barqaror tenzo sezgirlikka ega bo'lishi aniqlangan.

qalinligi $d \sim 10,0 - 15,0 mkm$ $CdSe_{0,8}S_{0,2}$ yupqa qatlamlar faollanish energiyasi $E_c - 0,6 \pm 0,02 eV$ bo'lgan ortiqcha kadmiy tufayli elektron o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi ko'rsatilgan. $CdCl_2$ bug'ida 4 min termik ishlov berilganda, kadmiy vakansiyasi va xlor atomining kompleksi- $E_v + (0,42 \pm 0,02) eV$, tez rekombinatsiya markazi- $E_v + (0,92 \pm 0,02) eV$, shuningdek selen va kadmiy vakansiyasining kompleksi- $E_c - (0,19 \pm 0,02) eV$ hosil bo'lishi aniqlangan.

fotorezistiv $CdSe_{0,8}CdS_{0,2}$ yupqa qatlamlar etarli darajada yuqori $K \approx 2 \cdot 10^2$ nis.b. tenzosezgirlikka ega bo'lib, yoritish intensivligi L ortishi bilan kamayishi va $L \geq 10^4 lk$ qiymatlarda yuqori fotoo'tkazuvchanlik ostida deyarli yo'qolib ketishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagidan iborat:

vakuumda termik bug'latish yo'li bilan turli tarkibdagi kadmiy xalkogenidlarining fotovoltaiik va fotorezistiv yupqa qatlamli polikristal strukturalar olishning texnologik rejimlari ishlab chiqilgan;

$CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$ yupqa plyonkalarining fotoelektrik va deformatsiya kattaliklarining o'zgarishi, arzon va samarali foto va tenzodatchiklar yaratish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qattiq jismlar fizikasini zamonaviy o'lchash usullaridan foydalanilganligi va olingan ilmiy natijalarni nufuzli nashrlarda chop etilgan ishlarning natijalariga mos kelishi, yuqori sezgir texnologiyalar asosida olingan ilmiy natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, olingan natijalarning sinalgan fizik modellar doirasida izohlab berilishi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, $CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$ plyonkalarining tuzilishi, spektral va foto-tenzoelektrik xossalari hamda ularning ishchi parametrlari orasidagi bogʻlanish qonuniyatlarini bilish yarimoʻtkazgichli polikristall yupqa qatlamlardagi fizikaviy jarayonlar haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya natijalaridan arzon va samarali quyosh batareyalari, fotodetektorlar va $CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$ asosida foto-tenzoelektrik datchiklar tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yupqa qatlamli polikristall $CdTe_xSe_yS_{1-(x+y)}$ strukturalarning texnologiyasini ishlab chiqish va foto-tenzoelektrik xossalarni oʻrganish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kadmiy xalkogenidlarining polikristall yupqa pardalaridagi deformatsiya hodisalarini tahlil qilishning nazariy va eksperimental usullari ishlab chiqilgan, bu vakuumda termik bugʻlatish usuli bilan yarimoʻtkazgichli foto-tenzodatchiklar olish texnologiyasini takomillashtirish imkonini berdi va u «Uzeltexsanoat» AK «FOTON» AJ (“Uzeltexsanoat” AK ning 06.04.2023 y. dagi № 04-3/339 sonli maʼlumotnomasi)” korxonasida yarimoʻtkazgichli elektron qurilmalar tayyorlashda foydalanilgan. Ushbu ilmiy yangilikni qoʻllash, shubhasiz, yarimoʻtkazgich yupqa pardali foto va tenzodatchiklar tayyorlash usulini modernizatsiya qilishga olib kelgan;

polikristal $CdTe$, $CdSe$, CdS , $CdTe:Sn$ va $CdSe_xS_{1-x}$ yupqa qatlamlarining foto-tenzoelektrik xossalarni tadqiqot natijalari va kristall donlarning chiziqli davriy assimetrik strukturalarida yuqori kuchlanishli foto-EYuKni hisoblash usuli OT-F2-70 «Kuchli elektromagnit maydondagi nanooʻlchamli yarimoʻtkazgich parametrlariga harorat, deformatsiya va yorugʻlikning taʼsiri» ilmiy loyihani bajarishda qoʻllanilgan (loyiha rahbari prof. G.Gulyamov, Namangan muhandislik-qurilish institutining 2023-yil 25-martdagi 06/10-09/276-sonli maʼlumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish yorugʻlikning xususiy va kirishmali yutilishida kuchli legirlangan yarimoʻtkazgichli strukturalarda elektron kinetik hodisalarning fizik mexanizmlarini tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruza qilindi va muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan 6 ta ilmiy maqola Oʻzbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya ishlarining ilmiy natijalarini eʼlon qilish uchun tavsiya etilgan jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, 126 ta foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati qisqacha asoslab berilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan tadqiqot o'rtasidagi bog'lanish aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy ishlar va muammoning o'rganilganlik darajasi qisqacha tahlil qilingan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot ob'ektlari, sub'ektlari va usullari belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amalga oshirish va ishlarning aprobatsiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

“Kadmiy xalkogenidlarining yupqa pardali strukturalarida foto- va tenzoelektrik hodisalarni o'rganishning hozirgi holati” nomli birinchi bobida CdS, CdSe, CdTe kristallarining asosiy parametrlari va texnologiyasi bo'yicha joriy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Ular asosida yupqa polikristall qatlamlar olish, elektr o'tkazuvchanligining ma'lum mexanizmlari, fotoo'tkazuvchanlikning xarakterli xususiyatlari, fotovoltaik va tenzorezistiv xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Ma'lum natijalarni tanqidiy tahlil qilish asosida dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.


“Vakuumba portsiyalab bug'latish yo'li bilan tayyorlangan CdTe, CdSe, CdS, fotovoltaik yupqa polikristall qatlamlarning foto-tenzoelektrik xossalari” nomli ikkinchi bobda shaffof dielektrik taglikda kadmiy xalkogenidlaridan vakuumda alohida portsiyalab termik bug'latish usuli bilan anomal fotovoltaik xossalari ega bo'lgan yupqa qatlamli ($d \approx 1.0$ mkm) elementlarni olish texnologiyasini takomillash-tirishning ayrim masalalari ko'rib chiqilgan. CdTe, CdSe, CdS polikristal yupqa qatlamlarining volt-amper, lyuks-amper, lyuks-volt va deformatsiya xarakteristikalarini tekshirishning eksperimental natijalari tahlil qilingan. Olingan namunalarda chiziqli VAX, LAX, temperaturaviy ($T \approx 120-320$ K) va deformatsiyaviy ($\epsilon \approx 3 \cdot 10^{-5} - 3 \cdot 10^{-3}$ nis.b.) xarakteristikalariga ega ekanligi ko'rsatilgan. Shuning uchun ular nurlanish spektrining ko'rinadigan va infraqizil nurga yaqin sohalarida mexanik deformatsiyaga sezgir bo'lgan istiqbolli fotopriEmniklar sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek burchak ostida bug'latib o'stirilgan yupqa polikristall plyonkalarda xususiy va aralashmali fotoqo'zg'alish ostida anomal yuqori fotokuchlanish hosil bo'lishining yangi nazariyasi ishlab chiqilgan, uning asosida dissertatsiyada olingan va hozirgi adabiyotlardan ma'lum bo'lgan eksperimental natijalar tahlil qilingan.

Yupqa qatlamli strukturalarni olish uchun CdTe, CdSe, CdS ning "o'ta toza" belgisi bo'lgan mayda dispersiyali kukunlari, shuningdek ushbu qo'shaloq birikmalarni alohida komponentlarining mexanik aralashmalari ishlatilgan. Tabiiyki, dastlabki materialning tarkibiga, uning bug'lanish xususiyatlari va sharoitlariga bog'liq bo'lgan bug' fazasining tarkibi yupqa fotovoltaik qatlamlarning tuzilishi va xususiyatlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shuning

uchun ushbu texnologik omillarni hisobga olgan holda biz quyidagi komponentlardan yupqa qatlamli strukturalarni oldik: 1. Ma'lum miqdordagi stexiometrik tarkibli CdTe, CdSe va CdS mexanik aralashmalardan. 2. Bug'latilayotgan materialning ma'lum portsiyalaridan. 3. CdTe va CdS kukunlarining 20 mass % gacha ortiqcha Cd bilan mexanik aralashmalaridan. 4. CdSe kukunlarining 15 mass. % gacha ortiqcha Cd bilan mexanik aralashmasidan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, birinchi portsiyaning 5% dan 30% gacha o'sishi bilan normal sharoitda yupqa qatlamli element tomonidan yorug'lik ostida 1 sm uzunlikda hosil bo'lgan maksimal fotokuchlanish kadmiy tellurid uchun 2500 V gacha va kadmiy sulfidda esa 1200 V gacha oshadi, shundan keyin (30% dan yuqori) asta-sekin tushadi. Bug'lanmagan qism (uchinchi portsiya) miqdori 0 dan 10% gacha ko'tarilishi bilan fotokuchlanishning maksimal qiymati oshadi, keyin esa (10% dan yuqori) pasaya boshlaydi. Eng yuqori fotokuchlanish qiymati quyidagi sharoitlarda olingan: I qism ~30%, II qism ~60%, III qism ~10%. Eng past fotokuchlanish butun boshlang'ich materialdan olingan yupqa qatlamlari tomonidan yaratilgan. Eng yuqori fotokuchlanish ~5 kV 1-portsiyalaridan olingan CdSe plyonkalari tomonidan yaratilgan (boshlang'ich materialning 25%). Dastlabki materialning eng kichik optimal massalari aniqlandi. Ular: CdTe-40 mg, CdSe va CdS-50 mg edi. Dastlabki material portsiyalarining hosil qilinadigan fotokuchlanish qiymatiga bunday ta'siri bug'lanish jarayonida namunaning molekulyar tarkibi o'zgarishi bilan bog'liq va bu hosil bo'lgan qatlamlarning fazaviy tarkibi va tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

Optimal texnologik sharoitlarda olingan qalinligi $d \approx 1$ mkm va yuzasi 5×20 mm² bo'lgan CdTe, CdSe yupqa qatlamli elementlarning elektr xossalari o'rganildi, ularning volt-amper xarakteristikalari -3 kV/sm dan +3 kV/sm gacha bo'lgan elektr maydon kuchlanganligi oralig'ida qorong'ulikda va $5 \cdot 10^4$ lyuks tabiiy yoritilganlikda olindi. Ma'lum bo'lishicha, ushbu yupqa qatlamlarning VAX boshqa adabiyotlardagi kabi qorong'ulikda va yorug'lik ostida chiziqli bo'ladi, ammo ularning qorong'ulikdagi elektr qarshiligi boshqa usullar bilan olingan shunga o'xshash elementlarning qarshiligidan bir tartibda yuqoriroqdir $R \approx 10^{12} \div 10^{13}$ Om. Buning sababi shundaki, portsiyalab bug'latish



1-rasm. CdTe (1) va CdS (2 chap shkala) yupqa qatlamlar VAXga mexanik deformatsiya ta'siri: $\epsilon=0$ (o), $2,0 \cdot 10^{-3}$ (Δ -cho'zilish), $-2,0 \cdot 10^{-3}$ nis.b. (x-siqilish). $T=300$ K.

bilan olingan shunga o'xshash elementlarning qarshiligidan bir tartibda yuqoriroqdir $R \approx 10^{12} \div 10^{13}$ Om. Buning sababi shundaki, portsiyalab bug'latish


usuli bilan tayyorlangan fotovoltaik plyonkalarda ko'proq faol mikro fotoelementlar (mikro-geteroo'tishlar) yuzaga keladi va faol bo'lmaganlar (shuntlovchi qatlamlar) soni kamayadi, kristall donlar hajmida donor va aktseptor aralashmalarining kuchli kompensatsiyalashuvi sodir bo'ladi.

1-rasmda *CdTe*, *CdS* yupqa qatlamlarning qorong'ulikdagi VAX ga tashqi elastik deforma-tsiyaning ta'siri keltirilgan. VAX chiziqlaridan ko'rinadiki, deformatsiya natijasida VAX ning chiziqli xarakteri o'zgaraydi. Bir tomonlama siqilish deformatsiyasida yupqa qatlamning elektr o'tkazuvchanligi sezilarli darajada oshadi, cho'zilish ostida esa pasayadi. Bu deformatsiya ta'sirida kristall donlar chegaralaridagi potentsial to'siqlar parametrlarining o'zgarishi bilan bog'liq. Tabiiyki, to'siqning balandligi va kengligi siqilishda kamayib boradi va cho'zilishda ortadi.

Yupqa qatlamli namunalarning tenzosezgirlik koeffitsienti K $U=const$ doimiy kuchlanishda

$$K = \Delta I / I_0 \varepsilon, \quad (1)$$

formula bo'yicha hisoblab chiqilgan. Bu erda $\Delta I = I - I_0$ - tok kuchining mutloq o'zgarishi, I va I_0 - deformatsiyaning mavjudligi va yo'qligida namuna orqali o'tadigan tok kuchi, ε - nisbiy deformatsiya. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, K ning qiymati o'rganilayotgan plenkalar uchun 60 dan 100 n.b. gacha tashkil etadi.




2-rasm. CdTe (a), CdS (b) va CdSe (c) yupqa pardalarning cho'g'lanma lampa nurlanish $L=2 \cdot 10^4$ lk intensivligida U_{AFN} bo'yicha deformatsiya xarakteri-stikasi. $T=300$ K.

ravishda ortadi. Rasmdan yana shuni ko'rish mumkinki, U_{AFN} bo'yicha tenzosezgirliги *CdS* plyonkalari uchun eng yuqori: $K \approx 10^2$. Deformatsiya paytida fototok va fotokuchlanishning o'zgarishi, shubhasiz, yupqa qatlamlarning kristall strukturasi-dagi mikropotentsial to'siqlar parametrlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, ular birinchi navbatda kristall donlarining interfeyslaridagi assimetrik getero-o'tishlar tufayli hosil bo'ladi. Xona haroratida deformatsiya ta'sir ettirilgan va deformatsiyasiz *CdTe* va *CdS* yupqa pardalarning lyuks-amper xarakteristikalari yorug'lik intensivligining 0 dan $5 \cdot 10^4$ lyuksgacha oraliq'ida o'rganildi va ular 3-

rasmda keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, LAXlar deformatsiya mavjud bo‘lganda ham, yo‘qligida ham chiziqli bo‘ladi.


Deformatsiya ta‘sirida LAX ning sifat ko‘rinishi o‘zgarmaydi, faqat cho‘zilishda ordinata bo‘ylab pastga va siqilish paytida yuqoriga siljiydi, ya‘ni fototok siqilishda ortadi va cho‘zilishda esa kamayadi. Biz bunday o‘zgarishlar kadmiy xalkogenidlarining fotovoltaik yupqa pardalarida mavjud assimetrik mikropotensial to‘siqlarning deformatsiya ta‘sirida o‘zgarishi bilan bog‘liq va bu o‘z navbatida ushbu plyonkalarining sezilarli foto va tenzosezgirlikiga olib keladi deb hisoblaymiz.

Portsiyal bug‘latish usuli bilan olingan CdTe, CdSe plyonkalari uchun spektral xarakteristikalar $U_{AFN}(\lambda)$ mexanik deformatsiya mavjud va mavjud bo‘lmagan hollarda qayd etilgan. Ushbu plyonkalar uchun tipik $U_{AFN}(\lambda)$ egri chiziqlar sifat jihatidan bir xil shaklga ega. Shuning uchun 4-rasmda faqat CdTe: Cd plyonkasi uchun $\hbar\omega > E_g$ qisqa to‘lqin uzunlik sohasidagi spektrlarning



4-rasm. CdTe: Cd plyonkaning $U_{AFN}(\lambda)$ spektriga mexanik deformatsiyaning ta‘siri. Nuqtali chiziqlar uchun $\bullet - \epsilon = 0$; $\blacksquare - \epsilon = 2,0 \cdot 10^{-3}$ nis.b. (cho‘zish) va $\blacktriangle - \epsilon = -2,0 \cdot 10^{-3}$ nis.b. (siqilish), $T = 300$ K.

darajada rivojlangan assimetrik mikropotensial to‘siqlari bo‘lgan fotovoltaik plyonkalar hosil bo‘lishini anglatadi. Bizning fikrimizcha, M-chizig‘i CdTe-CdO-CdTe... tipidagi mikro-geteroo‘tishli struktura tomonidan qo‘shimcha fotokuchlanish hosil qilinishi bilan bog‘liq. Xona haroratida CdTe va CdO ning




3-rasm. CdTe (1) va CdS (2) ning lyuks-amper xarakteristikasi: $\epsilon = 0$ (o), $\epsilon = -2 \cdot 10^{-3}$ (x-siqilish) va $\epsilon = 2 \cdot 10^{-3}$ nis.b. (Δ - cho‘zish). $T = 300$ K.

fragmentlari keltirilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, fotokuchlanishning maksimumi $\lambda_M = 613$ nm ($\hbar\omega_M \approx 2.02$ eV) to‘lqin uzunligida joylashgan xarakterli M spektral chizig‘i kuzatiladi, u taxminan (550-650) nm oralig‘ida joylashgan va ilgari ma‘lum texnologiyalar yordamida boshqa mualliflar tomonidan olingan CdTe va CdTe: Ag yupqa qatlamlarida aniqlanmagan. $U_{AFN}(\lambda)$ spektrning qisqa to‘lqinli sohasida M chizig‘ining paydo bo‘lishi vakuumda portsiyalab bug‘latish usuli bilan bir oz boshqacha tuzilishga ega yuqori

taqiqlangan zona kengliklari 1.46 eV va 2.18 eV ni tashkil qilishini va ularning ikkinchisi $\hbar\omega_M=2.02 \text{ eV}$ qiymatiga juda yaqin ekanligini e'tiborga olsak yuqoridagi xulosalar tasdiqlanadi.

Fotovoltaik effektini o'rganishda fototok va fotokuchlanishning haroratga bog'liqligi muhim xususiyatlar hisoblanadi. Dastlabki va deformatsiyalangan CdTe va CdSe yupqa qatlamlarida fotokuchlanish va qisqa tutashuv fototokning haroratga bog'liqligi eksperimental qayd etilgan. 5-rasmda mexanik deformatsiya qo'yilmagan va mavjud bo'lgan hollardagi fotokuchlanish U_{AFN} ning haroratga




5-rasm. Mexanik deformatsiya paytida CdTe (a) va CdSe (b) yupqa qatlamlar fotokuchlanishining haroratga bog'lanishi: $\epsilon=0$ (o), $2,0 \cdot 10^{-3}$ nis.b. (Δ --cho'zilish), va $-2,0 \cdot 10^{-3}$ nis.b. (x-siqilish). $L=2 \cdot 10^4 \text{ lk}$. bog'liqligi ko'rsatilgan.

Rasmdan ko'rinadiki, haroratning pasayishi bilan deformatsiyasiz CdTe yupqa qatlamda hosil bo'lgan fotokuchlanish dastlab $T=100 \text{ }^\circ\text{C}$ da $2 \cdot 10^3 \text{ V}$ qiymatdan $T=-50 \text{ }^\circ\text{C}$ da $7 \cdot 10^3 \text{ V}$ gacha deyarli chiziqli ravishda ortadi. $T=-160 \text{ }^\circ\text{C}$ da maksimal $\sim 15 \text{ kV}$ gacha superchiziqli ortadi va keyin keskin pasayadi (a). CdSe yupqa qatlam uchun (5-rasm, b) birinchi navbatda $T=100 \text{ }^\circ\text{C}$ da $3 \cdot 10^3 \text{ V}$ qiymatdan $T=40 \text{ }^\circ\text{C}$ da $6 \cdot 10^3 \text{ V}$ gacha silliq subchiziqli o'sish kuzatiladi, $T=-\sim 40 \text{ }^\circ\text{C}$ larda to'yinish sodir bo'ladi, shundan so'ng $T=-100 \text{ }^\circ\text{C}$ da $7.5 \cdot 10^3 \text{ V}$ qiymatlargacha superchiziqli takroran o'sish-to'yinish va keyin keskin pasayish kuzatiladi. $U_{AFN}(T)$ ning haroratga bog'liqligining bunday xususiyatlari fotokuchlanish hosil bo'lishiga turli xil mikrostrukturalar, ko'chirilish mexanizmlari va sochilish sohalari sezilarli darajada ta'sir qilishini ko'rsatadi. CdTe yupqa qatlami uchun $T \geq -50 \text{ }^\circ\text{C}$ da kristall donlarining kvazineytral sohasida zaryad tashuvchilarning ko'chirilishi, $T < -50 \text{ }^\circ\text{C}$ da esa sirtga yaqin hajmiy zaryadlar sohasining ta'siri va sirt holatlarining qayta zaryadlanishi ustunlik qiladi deb hisoblash mumkin. Shunisi alohida e'tiborliki, CdSe yupqa qatlamlari uchun uchta xarakterli harorat oraliqlari mavjud: $T \geq 40 \text{ }^\circ\text{C}$, $T=(40 \div -40) \text{ }^\circ\text{C}$, $T < -40 \text{ }^\circ\text{C}$. Deformatsiya ta'sirida har ikkala yupqa qatlamning temperatura xarakteristikasi $U_{AFN}(T)$ sifat jihatidan deyarli o'zgarmaydi, faqat cho'zilishda ordinata bo'ylab

yuqoriga, siqilishda esa pastga siljiydi va ϵ ga nisbatan simmetrik bo‘ladi. Demak mexanik deformatsiya anomal fotokuchlanish tabiati va mexanizmini buzmaydi. Eng muhimi, fotovoltaiik namunalar haroratning pasayishi bilan mexanik deformatsiyaga nisbatan sezgirroq bo‘lib qoladi. Bu mikropotensial to‘siqlarning balandligi va kengligining o‘zgarishi, shuningdek nuqsonlarning zaryadlanish holatlari tufayli zaryad tashuvchilarning samarali konsentratsiyasi va harakatchanligining pasayishi tufayli past haroratlarda plyonkalar qarshiligining ortishi bilan izohlanishi mumkin.

Anomal fotokuchlanish U_{AFN} ni nazariy hisoblash uchun fotovoltaiik plyonkaning yarimo‘tkazgich (Y) - dielektrik (D)- yarim o‘tkazgich (Y) ketma-ket ulangan qatlamlar davriy chiziqli zanjiri sifatidagi modeli ko‘rib chiqiladi (6-rasm). Dielektrik qatlam (DQ) tuzoqsiz, uning qarama-qarshi sirtlarida har xil konsentratsiyali bir qator tez sirt energetik holatlari mavjud deb hisoblanadi. Strukturaviy element YDY ning xususiyatlaridagi bunday assimetriya kristall donlar o‘shining assimetrik geometriyasini aks ettiruvchi sirtoldi potensial to‘siqlarining assimetriyasini keltirib chiqaradi. D -qatlamning turli tomonlaridagi sirtlar va potensial to‘siqlar elektr xossalari bo‘yicha bir-biridan farq qilganligi sababli YDY -strukturaviy element hosil qiladigan



6-rasm. Termodinamik muvozonatdagi davriy kristall donlar chiziqli zanjiri uchun kristallitlar chegarasidagi g‘ovaklikka (D -qatlam) tutashgan assimetrik potensial to‘siqli zonaviy diagramma.

$$U_{FO}^{(1)} = U_{FO,1}^{(1)} - U_{FO,2}^{(1)} + U_{FO}^s \quad (2)$$

sirt foto-kuchlanishlarining algebraik yig‘indisi nolga teng bo‘lmaydi va fotovoltaiik yupqa qatlamning bitta konstruktiv elementi YDY tomonidan yaratilishi mumkin bo‘lgan elementar fotokuchlanishlarning asosiy hissasini tashkil etadi. U holda aniqki,

$$U_{AFN} = (N-1)U_{FO}^{(1)}. \quad (3)$$

Bu erda N - yupqa qatlam bo‘ylab davriy ravishda joylashgan kristall donlar soni. So‘ngra dissertatsiyada bitta diskret sirt energetik sathi asosan valent zonasi bilan zaryad tashuvchilar almashtirganda, zonaning inversion egilish chegaraviy holatidagi hisoblash natijalari keltirilgan:

$$U_{FO,1}^{(1)} - U_{FO,2}^{(1)} = \frac{kT}{e} \alpha \eta L \times \left[\frac{p_{01}^{-1} \cdot L_1 / L}{v_{01} + v_{s1} \exp \frac{\psi_{s1}}{kT}} - \frac{p_{02}^{-1} \cdot L_2 / L}{v_{02} + v_{s2} \exp \frac{\psi_{s2}}{kT}} \right], \quad (4)$$

$$U_{FO}^s = \frac{e \delta_{\text{ef}} p_t^0}{\epsilon_0} \cdot \alpha \eta L \left[\frac{N_{t1} p_{01}^{-1} \cdot L_1 / L}{\left(v_{01} + v_{s1} e^{\frac{\psi_{s1}}{kT}} \right) \left(p_{01} + p_t^0 e^{\frac{\psi_{s1}}{kT}} \right)} - \frac{N_{t2} p_{02}^{-1} \cdot L_2 / L}{\left(v_{02} + v_{s2} e^{\frac{\psi_{s2}}{kT}} \right) \left(p_{02} + p_t^0 e^{\frac{\psi_{s2}}{kT}} \right)} \right]. \quad (5)$$

Bu erda α , η va L - yutilish koeffitsienti, tushayotgan yorug‘likning kvant chiqishi va intensivligi, L_1 va L_2 - D-qatlamning chap va o‘ng tomonidan o‘tadigan nurlanish intensivligi, N_{t1} va N_{t2} - yoritilmagan paytda t- tuzoqlar konsentratsiyalari va v_{01} , v_{02} va v_{s1} , v_{s2} - hajmiy va sirt rekombinatsiya tezliklari, ψ_{s1} va ψ_{s2} - yoritilgan paytda D-qatlamning har ikki tomonidagi sirtlarda zonaning egilish qiymatlari, δ_{ef} - D-qatlamning effektiv kengligi, ϵ_0 - dielektrik o‘tkazuvchanlik, p_t^0 - Fermi sathi t - tuzoq sathiga to‘g‘ri kelganda teshiklar konsentratsiyasi, e -elektron zaryadi, k -Boltsman doimiysi, T -absolyut temperatura.

Yorug‘lik intensivligining $\psi_{s1}^* - \psi_{s1} < kT$ shartni qanoatlantiruvchi past qiymatlarida quyidagi natija olingan:

$$U_{FO}^{(1)} = \frac{kT}{e} \alpha \eta L \times \left[\frac{p_{01}^{-1} \cdot L_1 / L}{v_{01} + v_{s1} e^{\frac{\psi_{s1}}{kT}}} \left(1 + \frac{N_{t1} \cdot \delta_{\text{ef}} / L_t^2}{p_{01} + p_t^0 e^{\frac{\psi_{s1}}{kT}}} \right) - \frac{p_{02}^{-1} \cdot L_2 / L}{v_{02} + v_{s2} e^{\frac{\psi_{s2}}{kT}}} \left(1 + \frac{N_{t2} \cdot \delta_{\text{ef}} / L_t^2}{p_{02} + p_t^0 e^{\frac{\psi_{s2}}{kT}}} \right) \right], \quad (6)$$

Bu erda $L_t^2 = \epsilon_0 kT / e^2 p_t^0$. (6) dan ko‘rinnadiki, AFK effekti, ya’ni polikristall fotovoltaiik yupqa pardalarda U_{AFN} ni hosil bo‘lishi qo‘shni kristall donlarning hajmiy (n_0 , p_0 , v_0) va sirti (ψ_s , v_s) elektron xususiyatlarining farqi tufayli yuzaga keladi, bu esa molekular dastalarining taglikka normal tushadgan texnologiyada yuzaga kelmaydi. yetarlicha kichik yoritilganliklarda U_{AFN} yorug‘likning yutilish α koeffitsienti, kvant chiqishi η va intensivligi L larga proporsionaldir.

Hozirgacha AFK effekti bo‘yicha ma’lum bo‘lgan nazariy ishlarda, past yoritilganlik qiymatlarida lyuks-volt xarakteristika $U_{AFN}(L)$ subchiziqli ekanligi ta’kidlangan. Biroq ulardan farqli o‘laroq bu erda ishlab chiqilgan nazariya natijalariga ko‘ra ushbu holatda U_{AFN} qo‘zg‘atuvchi yorug‘likning intensivligi L ga chiziqli ravishda bog‘liq. Haqiqatan, (6) formuladan ko‘rinib turibdiki, agar past yorug‘lik intensivligida v_{0i} va v_{si} miqdorlar, qavs ichidagi ayirma ifoda L ga bog‘liq emas deb hisoblasak, unda chiziqli bog‘lanish $U_{AFN} \sim L$ kelib chiqadi (7-rasmda a-sohaga qarang). **"CdTe:Sn va CdSe_xS_{1-x} yupqa qatlamli strukturalarning fotoelektrik xossalari mexanik deformatsiyaning ta’siri"** nomli uchinchi bobda kirishmali burchak ostida o‘stirilgan polikristalli CdTe:Sn yupqa ($d \leq 1$ mkm) qatlamdagi fotovoltaiik effektini, shuningdek, ularning


elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlariga mexanik deformatsiyaning ta'sirini qalay kirishma miqdori va texnologik parametrlarga bog'liq ravishda o'rganish natijalari keltirilgan.

$T \approx 550 \text{ K}$ ga qadar qizdirilgan slyuda tagligida kukunli CdSe va CdS aralashmasini kvazimuvozanat sharoitida termal vakuumda bug'lantirish natijasida olingan etarlicha yuqori fotoo'tkazuvchanlikka ega ($d \approx 4.0-5.0 \text{ mkm}$) polikristal plyonkalarining foto-tenzoelektrik xossalari ko'rib chiqildi. Lukovskiy usulida $\text{CdSe}_{0.8}\text{S}_{0.2}$ plyonkalar fotoo'tkazuvchanligining spektral taqsimotini o'rganish orqali kirishmali fotoo'tkazuvchanlikni

aniqlaydigan lokal sathlarning faollashuv energiyalari aniqlandi. Namunalarni cho'g'lanma lampa bilan yoritganda, deformatsiya sezuvchanligi pasayadi va zaryad tashuvchilarning harakatchanligi haroratga zaif bog'liqligi ko'rsatilgan, bu mikropotensial to'siqlar xususiyatlarining pasayishi va kristallitlar hajmida chuqur sathlarning qayta zaryadlanishi bilan izohlanadi. yorug'lik ta'sirida don chegaralari. $\text{CdSe}_{0.8}\text{CdS}_{0.2}$ qattiq eritmasidan tayyorlangan yupqa qatlamlarning qorong'ida tenzosezgirliги ancha yuqori $K \approx 10^2-10^3$ nis.b. bo'lib, yorug'lik ta'sirida kamayadi va yuqori ($L \geq 10^4 \text{ lk}$) intensivliklarda amalda yo'qolib ketadi, bu uning namunalar kuchli fotoo'tkazuvchanligi ostida bostirilishi bilan izohlanadi.

Ma'lum texnologiyalardan farqli o'laroq, biz CdTe va Sn larni alohida bug'latish orqali oldindan qizdirilmagan tagliklarda qalay bilan legirlangan kadmiy telluridning fotovoltaik plyonkalarini olishning yangi usulini ishlab chiqdik. Dastlabki material sifatida stexiometrik tarkibli polikristalli kadmiy tellurid, kadmiy va tellurning kukun holdidagi sof komponentlari va kukunli qalay olindi. Yupqa qatlamlar shisha qalpoq ostidagi vakuum kamerasida oddiy yoki organik shisha taglikka o'tqazildi, uning ichida bug'latgich sifatida tantal qayiqcha (tigel)lar joylashtirilgan edi. Taglik bug'latgichdan 5-7 sm masofada molekular dastasi yo'nalishiga nisbatan $30-50^\circ$ burchak ostida joylashtirildi.


Yupqa burchak ostida o'tqizilgan CdTe qatlamlarini legirlash jarayoni to'g'ridan-to'g'ri ularning $10^{-4} \div 10^{-5} \text{ mm.sm.ust.}$ vakuumda o'sishi paytida CdTe va Sn ni alohida tigellardan bug'latish orqali amalga oshirildi. Bug'latiladigan aralashmaning optimal boshlang'ich massasi CdTe massasiga nisbatan 3-5 atom. % ni tashkil etdi. Sn ning bug'lanishi CdTe bug'lanishidan 2-3 daqiqaga kechiktirildi



7-rasm. Fotovoltaik yupqa qatlamlarning xona haroratidagi ($T=300 \text{ K}$) lyuks-volt xarakteristikalari: 1-CdTe, 2-CdSe, 3-CdS, 4-CdTe:Ag.

va 3-5 daqiqa oldinroq to'xtatildi. Omik kontaktlarni olish texnologiyasi va U_{AFK} ni o'lchash texnikasi ma'lum ishlardagi usullardan farq qilmadi. Qalinligi $d \approx 0.8 - 1.0$ mkm va yuzasi 5×20 mm² bo'lgan yangi tayyorlangan CdTe:Sn namunalari (kondensatsiya tezligi 0.5-1.0 nm/s oralig'ida o'zgargan) yuqori qarshilikka ega bo'lib chiqdi va CdTe:In plenkasidan farqli o'laroq, qo'shimcha termik ishlov berish talab qilmadi.

8-rasmda CdTe:Sn yupqa pardasi tomonidan hosil qilingan maksimal fotokuchlanishning qalay kirishmasi miqdoriga tipik bog'lanishi keltirilgan. Rasmdan ko'rinadiki, Sn miqdorining noldan 5 atom% gacha ko'tarilganda fotokuchlanishning maksimal qiymati dastlab deyarli chiziqli ravishda ~400 V dan 4200 V gacha oshadi, keyin esa to'yinish sodir bo'ladi va Sn qo'shimchasi 8 atom % gacha ortganda nochiziqli ravishda 2000 V gacha pasayadi. Quyida biz tadqiqot natijalarni faqat 5 atom.% Sn qo'shilgan namunalari uchun taqdim etamiz.



8-rasm. CdTe:Sn fotovoltaik yupqa qatlam tomonidan hosil qilingan fotokuchlanishning maksimal qiymatiga qalay kirishmasi miqdorining ta'siri. T=300 K

CdTe:Sn yupqa pardalarining fotovoltaik parametrlari II bobda o'rganilgan yupqa pardalarnikidan yomon emas: xona haroratida $U_{AFK} = 3000$ V/sm va suyuq azot haroratida $U_{AFK} = 1.3 \cdot 10^4$ V/sm. Stoxiometrik CdTe plyonkasining qorong'idagi qarshiligi $10^{10} - 10^{11}$ Om ga teng bo'lsa, 5 atom % qalay qo'shilgan CdTe:Sn plyonkasi uchun $10^{12} - 10^{13}$ Om ni tashkil etdi, bu deyarli ikki tartibda kattaroqdir (1-jadvalga qarang). Tabiiyki, bu hol yangi texnologiyada olingan polikristall CdTe:Sn yupqa pardasining mikrokrystallitlari hajmida ham, yuzasida ham donor va akseptor kirishma markazlarining o'ta kuchli kompensatsiyasi bilan vujudga kelganligi bilan izohlanadi. 1-jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilib, CdTe ni In kirishmasi bilan faqat optimal termik ishlov (TI) berish orqali, CdTe:Sn plyonkasini TI siz optimal legirlab maksimal $U_{AFN} = (2-3) \cdot 10^3$ V/sm va $I_{qt}^{\phi} \approx 10^{-9}$ A qiymatlarga erishiladi degan xulosaga kelishimiz mumkinki.

1-Jadval.


CdTe, CdTe:In, CdTe:Sn CdTe yupqa qatlamlarining parametrlari

№ t/r	Yupqa qatlamlarning elektrofizik parametrlari	toza CdTe	legirlangan CdTe:In		CdTe:Sn, toblanmagan
			Toblanishdan oldin	Toblanishdan keyin	
1.	Qorong'u qarshilik, R_{qor} , Om	$(1.0 \pm 0.05)10^{11}$	$(2.0 \pm 0.05)10^{10}$	$(5.0 \pm 0.05)10^{11}$	$(5.0 \pm 0.05)10^{12}$
2.	Yoritilgan qarshilik, R_{yo} ,	$(2.0 \pm 0.05)10^{10}$	$(3.0 \pm 0.05)10^9$	$(2.0 \pm 0.05)10^{11}$	$(2.0 \pm 0.05)10^{11}$

	<i>Om</i>				
3.	Qisqa tutashuv toki, I_{qt}, A	$(1.0 \pm 0.03)10^{-10}$	$(2.0 \pm 0.03)10^{-8}$	$(1.0 \pm 0.03)10^{-9}$	$(1.0 \pm 0.03)10^{-9}$
4.	Maksimal fotokuchlanish qiymati, U_{AFN}, V	$(4.0 \pm 0.5)10^2$	$(0.6 \pm 0.1) 10^2$	$(2.0 \pm 0.1)10^3$	$(3.0 \pm 0.5)10^3$


9-rasmda CdTe:Sn fotovoltaik yupqa pardalarning $L = 3.5 \cdot 10^4 \mu\text{K}$ yorug'lik ostidagi tipik deformatsiya xarakteristikasi $\Delta U_{AFN}(\epsilon)/U_{AFN}$ ko'rsatilgan, bu qat'iy chiziqli. Fotokuchlanish uchun tenzosezgirlik koeffitsienti bir tomonlama cho'zilish va siqilish deformatsiyalari uchun $K = (0,7-1,0) \cdot 10^2 \text{ n.b.}$ tartibidagi bir xil qiymatga ega. K qiymatning deformatsiya yo'nalishi inversiyasiga nisbatan o'zgarishligi plyonkalaridagi mumkin bo'lgan ichki mexanik kuchlanish ularning fotovoltaik xususiyatlariga ta'sir qilmasligini anglatadi.

10-rasmdan ko'rinadiki, xona temperaturasidagi CdTe:Sn yupqa pardalarining 0 dan $5 \cdot 10^4 \text{ lk}$ gacha yorug'lik intensivligi oralig'ida olingan lyuks-volt xarakteristika-lari turli xil qiyalik burchaklariga ega bo'lgan ikkita xarakterli sohadan iborat. Birinchi chiziqli soha yorug'likka qarab fotokuchlanishning tez o'sishiga to'g'ri keladi. Ikkinchi chiziqli bo'lmagan qismida intensivlik bilan sekinroq o'sish va to'yin-ganlikka



10-rasm. Qalay aralashmalari 5 atom % li kadmiy tellurid plyonkalarining lyuks-volt xarakteristikasiga deforma-tsiyaning ta'siri: $\epsilon = 2 \cdot 10^{-3} \text{ n.b.}$, Δ - cho'zilish, x - siqilish, \bullet - $\epsilon = 0$.

balandligidagi o'zgarishlar $U_{AFN}(L)$ bog'lanishga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.



9-rasm. Qalay kirishmasi 5 atom % bo'lgan fotovoltaik CdTe:Sn plyon-kaning deformatsiya xarakteristikasi. $L = 3.5 \cdot 10^4 \text{ lk}$ va $T = 300 \text{ K}$.

chiqish kuzatiladi. Fotokuchlanishning yorug'likka bog'lanish xakteri va miqdoran yupqa pardalarning orqa va old tomonidan yoritilishda o'zgarmadi. Foto-voltaik sezgirlik $T = 300 \text{ K}$ temperaturada va


$L = 10^{-5} \frac{Vt}{\text{sm}^2}$ intensivlikda $2 \cdot 10^7 \frac{Vt / \text{sm}}{Vt / \text{sm}^2}$ qiymatga ega bo'ldi. Rasmda fotokuchlanishning qiymati siqilish deformatsiyasi bilan qanday kamayishi va cho'zilishda ortishi aniq ko'rsatilgan, bu oxir-oqibatda plyonka deformatsiyasi paytida mikropotensial to'siqlar

balandligidagi o'zgarishlar $U_{AFN}(L)$ bog'lanishga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

11-rasmda qalay kirishmasi miqdori 5 atom % bo'lgan CdTe:Sn yupqa pardalari uchun $\hbar\omega > E_g$ qisqa to'liq uzunlik sohasida $U_{AFN}(\lambda)$ spektrlarining fragmentlari deformatsiya yo'q holatda (\bullet nuqtali chiziq) hamda bir tomonlama cho'zilish (Δ - uchburchaklar bilan) va siqilish (\times – krestiklar bilan) uchun keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, barcha spektrlar bir xil xarakterli sohalar va spektrning $\lambda \approx 600$ nm ($h\nu \approx 2.07$ eV) to'liq uzunli-gidagi M burilish nuqtasiga ega bo'lgan deyarli parallel chiziqlardir (4-rasmga taqqoslang).

Yutilish $\alpha(\omega)$ spektrining shunga o'xshash bog'lanishi kristall kadmiy xalkogenidlarining an'anaviy geteroo'tishlariga xosdir. Shu sababli M nuqtaning holati taqiqlangan zona E_g chegarasiga nisbatan spektrning qisqa to'liq uzunliklari sohasiga siljiganligiga e'tibor qaratish zarur. Bu shuni anglatadiki, o'rganilayotgan fotovoltaiik plyonkalarini tashkil etuvchi mikrofotoelementlar CdTe-CdO-CdTe-..... ($E_{g,CdTe} = 1.60$ eB, $E_{g,CdO} = 2.18$ eB). ko'rinishidagi mikro geteroo'tishlar zanjirini ifodalashi mumkin.

